

QIZ BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi,

Qo‘qon davlat universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi,

Soliyeva Nilufar,

Jizzax viloyati, Baxmal tumani 72-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi,

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oilada farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish zarurligi, hususan qiz farzand tarbiyasida nimalarga e‘tibor qaratish zarurligi ibratli rivoyatlar, mutafakkir bobolarimiz asarlari orqali asoslab berilgan. Shu bilan birgalikda bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan davlat siyosati darajasida qaratilayotgan e‘tibor masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, oila, rivoyat, tarbiya, psixologik jarayon, ma‘naviyat, milliy qadriyat, fuqaro.

Аннотация: В статье обосновывается необходимость уделять особое внимание воспитанию детей в семье, особенно на что следует обращать внимание при воспитании девочек, посредством поучительных рассказов и трудов наших мыслителей. Вместе с тем освещаются вопросы внимания, уделяемого женщинам на уровне государственной политики сегодня.

Ключевые слова: Независимость, семья, традиция, воспитание, психологический процесс, духовность, национальная ценность, гражданин.

Abstract: The article substantiates the need to pay special attention to the upbringing of children in the family, especially what to pay attention to in the upbringing of girls, through instructive stories and the works of our thinkers. At the same time, it highlights the issues of attention paid to women at the state policy level today.

Keywords: Independence, family, tradition, upbringing, psychological process, spirituality, national value, citizen.

O‘zbekistonning mustaqillik davri milliy an‘ana va qadriyatlarning tiklanish davri bo‘ldi. Milliy madaniyatimizda muhim o‘rin egallagan, jamiyatimizning mustaxkamligi farzandlar kamolini ta‘minlovchi qadriyatlardan biri oiladagi milliy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra oila jamiyatning eng muhim va eng qadimiy bo‘lagi. Chunki oila va undagi farzand tarbiyasidagi yutuqlar jamiyatning yutug‘iga, farzand tarbiyasidagi noqisliklar esa pirovard oqibatda jamiyatdagi kamchiliklarga olib keladi. Oiladagi milliy qadriyatlarimizning asosiy tamoyillaridan biri oilada ayollarga bo‘lgan munosabatlarda ko‘rinadi.

Kishilik jamiyatining bir qismini ayollar tashkil etar ekan, hayotda turmush yumushlarining ko‘p qismi ular zimmasidadir. Ayol – birinchi navbatda onamiz, qolaversa juftu halolimiz, opa-singlimiz, qizimizdir. Agar ayol hayotda ham jismonan, ham ma‘nan sog‘lom bo‘lsa demak, jamiyat sog‘lom bo‘ladi. Chunki, kelajakning mevasi bo‘lmish farzandlar onalar sababli dunyoga keladilar. Ularga

boshlang‘ich ta‘lim-tarbiya va odob-axloqni keksa onaxon-momoxonlarimiz o‘rgatadilar. Shunday ekan, kelajak avlodning solih bo‘lishi bugungi kun ayollarining soliha bo‘lishlariga har jihatdan bog‘liqdir.

Ayol kishi avvalo, Ona sifatida qadrlanadi. Qur‘oni karimning bir nechta oyatlarida onani e‘zozlashga, uning haqqini ado etishga buyurilgan bo‘lib, Payg‘ambarimiz (sav) ham hadislarining birida: "Jannat – onalar oyog‘i ostidadir" – deb marhamat qilganlar (Imom Xatib rivoyati).

Islom ta‘limotida oilali ayolning zimmasiga qator vazifalar yuklatilishi barobarida, oilada u o‘z haq-huquqiga ham ega ekanligi aytilgan.

Rivoyat qilinishicha, sahobalar Rasululloh (sav)dan: Zimmamizda xotinlarimizning qanday haqlari bor? – deb so‘rashganda, U zot (sav): "Yeganingizda uni ham yedirmog‘ingiz, kiyganingizda kiydirmog‘ingiz, yuziga urmaslik, qabih so‘zlar bilan haqorat qilmaslik, arazlashganda uydan chiqmagan holda o‘rinni boshqa qilib yotmoqlik" – dedilar (Abu Dovud rivoyati).

Payg‘ambarimiz (sav)ning "Ayollar erkaklarning ajralmas bir qismidirlar" – degan hadislariga binoan ayol kishi jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi ekan, u ijtimoiy hayotda o‘z mavqeiga ega bo‘lib, ilm olishga, kasb-hunar qilishga haqlidir.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy “Minerologiya” nomli asarida ayollarning ro‘zg‘or qurayotgan qizlar tarbiyasidagi shaxsiy namuna bo‘lishi haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo‘ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo‘ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo‘lgan farzand, xushaxloq iymon soxibi bo‘lgan ota-onalardan bo‘ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo‘lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o‘sgan farzand ham bad-axloq bo‘ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo‘lishlari eng yaxshi fazilatdir, - deb bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo‘lishi haqda qimmatli fikrni ilgari surgan.

Amir Temur davrida ham oilada qiz bola tarbiyasiga e‘tiborliroq bo‘lishga to‘g‘ri kelgan. O‘sha davrda ham oilada qizlar tarbiyasi uchun eng kerakligi pazandalik, saranjom-sarishtalik, bichish-tikishni bilishlik, mehmon kuzatish va muomala qilish kabi sifatlarini bilishdan iborat bo‘lgan. Qizlarning bu boradaga tarbiyasida onaning ibratlari, namunasi va o‘rni muhim sanalgan.

O‘tmishda onalar o‘z qizlarini kelajakda har tomonlama yetuk, o‘ta qobiliyatli qilib, barchaga ibratli bo‘ladigan liderlik fazilatlariga ega, iffat va hayo sohibasi bo‘lishga o‘rgatganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o‘zlarining ma’ruza va nutqlarida bir necha bor ayollarning jamiyatdagi o‘rniga yuqori baho berganlar. “Yaratganning bebaho mo‘jizasi bo‘lgan aziz ayollarimiz, qadrlil onalarimiz, mehribon rafiqalarimiz, munis opa-singillarimiz, sevimli qizlarimiz va nabiralarimiz hayotda bizga barcha to‘siqlarni yengib o‘tish, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishish yo‘lida doimo g‘amxo‘rlik qilib, hamisha cheksiz ishonch, kuch va madad beradilar

Sizlarning onalik mehringiz va saxovatingiz, ayollik tarovatingiz va mehr-oqibatingiz uchun biz sizlardan umrbod qarzdormiz

Shu sababli onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta‘minlash, opa-singillarimizning og‘irini

yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz.”

Bu talabalarga mos tarbiya qizlarda oiladan va undan so‘ng ta‘limda boshlanadi. Yuqorida aytilganidek kelgusi oila bekasi bo‘ladigan qizlar o‘zlariga berilayotgan haq-huquq va keng imkoniyatlardan foydalanib, o‘zbekona hayosi va ibosini, nafisligi va mehribonligini saqlab qolishi lozim.

Ayni vaqtda qizlar faqat uy bekasi sifatida emas, balki kasb-xunarli, tadbirkor, ilg‘or, qiziquvchan, orzu-havasli, kasbiy-ilmiy jihatdan intiluvchan bo‘lishlari lozim. Ko‘pgina oilalarning kamchiligi o‘z qizlarni faqat uy beksi sifati oilaga tayyorlayotganlaridir. Bunday tarbiya ko‘rgan qizlar oxir oqibatda dunyoqarashlari tor bo‘lib, na erlarining muammolarini tushunishga qodir, na farzandlariga zamonaviy ta‘lim olishda ko‘maklashish qo‘ldan kelmaydigan ayolga aylanadilar. Ko‘p holatdagi oilaviy ajrimlarda ham ayolning noshudligi sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida bir necha bor “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.”-deb ta‘kidlab o‘tganlar.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ta‘limga qo‘yilayotgan talablar va Respublikamiz Prezidenti tomonidan berilgan imkoniyatlar ta‘lim tizimida qizlar tarbiyasiga alohida e‘tibor berishni toqazo etadi. Talabalik yillarida qizlarning hayoti va faoliyatida o‘z-o‘zini tarbiyalash, anglash ularning psixik jarayonlari hamda shaxsiy sifatlarining takomillashuvida muhim rol o‘ynaydi. Bunda o‘z-o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari bo‘lgan - o‘z-o‘zini tahlil qilish, nazorat etish, baholash va tekshirishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha ta‘lim dargohida qizlarning quyidagi sifatlarini shakllanishiga e‘tibor berish zarur:

- Ilm va bilim olishga qiziqtirish;
- Kitob o‘qish va badiiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- O‘z egallayotgan kasbga nisbatan hurmat va o‘ziga ishonch tuyg‘usini mustaxkamlash;
- O‘zining sog‘ligi va salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Hayot sinovlari oldida o‘zini tutish, muammolarni mustaqil hal qila olish, mustaxkam dunyoqarashni shakllantirish;
- Qizlarda liderlik sifatlarini va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Ijtimoiy faol fuqarolik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mazkur xususiyatlarni o‘quvchi qizlarda shakllantirish orqali biz jamiyatimizni ilg‘or fikrlovchi, ijtimoiy faol va tashabbuskor xotin-qizlar bilan boyitishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev.Sh.M “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent, O‘zbekiston-2018.

2.Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010

3.Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch” Toshkent, Ma’naviyat-2008.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz.

5. Otamuratov S “Ma’naviyat asoslari” Toshkent, “O‘zbekiston” 2001.